

GLOBAL NIZOLAR VA IQTISODIY BEQARORLIK: XAVFLAR VA RAQAMLAR TAHLILI

Saparova To'tixon

*UrDU, Buxgalteriya hisobi va audit
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global miqyosdagi nizolar va geosiyosiy keskinliklarning jahon iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan fundamental ta'siri, jumladan, ta'minot zanjirlarining buzilishi, energetika xavfsizligining zaiflashishi va global inflyatsiya kabi oqibatlar statistik ma'lumotlar va aniq misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Global nizolar, iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy keskinlik, inflyatsiya, ta'minot zanjiri, energetika inqirozi, moliyaviy beqarorlik, sanksiyalar, qashsoqlik, xalqaro hamkorlik.*

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga eng katta tahdid solayotgan omillardan biri- bu global miqyosdagi siyosiy va harbiy nizolardir. Turli davlatlar o'rtasidagi yuzaga kelayotgan qarama-qarshiliklar, geosiyosiy raqobatlar va qurolli mojarolar global savdo, investitsiya, energetika hamda moliya bozorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, iqtisodiy beqarorlik kuchayib, dunyo bozorida inflyatsiya, energetika tanqisligi va valyuta tebranishlari kabi muammolar chuqurlashmoqda.

Global nizo –bu ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi siyosiy, harbiy yoki iqtisodiy qarama-qarshiliklar bo'lib, uning oqibatlari xalqaro miqyoda seziladi. Nizo va mojarolar natijasida resurslar harbiy ehtiyojlarga yo'naltiriladi, investitsiya va ishlab chiqarish to'xtab qolishi mumkin. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yilda dunyodagi harbiy harajatlar 2,7 trillion dollarga yetgan. Agar 1970-yildan beri barcha zoravonliklar bo'lmaganda, dunyo iqtisodiyoti taxminan 12% ko'p bo'lgan bo'lardi. Bu bilan nizolar iqtisodiy o'sishni oldindan taxmin qilinganidan pastroq qilishga olib kelmoqda. Siyosiy qarama-qarshiliklar muhim xomashyo va mahsulotlar yetkazib berishning asosiy transport yo'llari va logistik tizimlarning ishdan chiqishi global inflyatsiyani kuchaytiradi. Ukrainadagi urush boshlanganidan keyin jahon bozorida bug'doy narxi bir necha oy ichida 25% dan ortiqqa ko'tarildi. Bu, ayniqsa, Yaqin Sharq va Afrikadagi oziq-ovqat xavfsizligi zaif bo'lgan mamlakatlar uchun katta ijtimoiy-iqtisodiy xavf tug'dirdi.

Ko'pchilik global nizolar energiya ta'minoti bilan bog'liq bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misol tariqasida, Rossiya-Ukraina mojarosi ortidan Yevropada tabiiy gaz narxi (odatdagi yillarga nisbatan) 400% dan ziyodga oshdi. Bu

energetika xarajatlarining oshishiga, qator zavod va korxonalarning to'xtab qolishiga yoki ishlab chiqarishni qisqartirishiga olib keldi. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar, masalan, Fors ko'rfazi (Gormuz) bo'g'ozidagi har qanday xavf, global neft narxini bir zumda yuqoriga ko'tarishi mumkin, chunki bu yo'l orqali dunyo neft savdosining taxminan 20% o'tadi.

Nizolar faqat fizik tovarlarga emas, balki moliyaviy xavfsizlik va institutsional ishonchga ham jiddiy putur yetkazadi. Nizolar paytida investorlar kapitalni nisbatan xavfsiz deb hisoblanuvchi aktivlarga (masalan, AQSh dollari yoki oltin) yo'naltirishadi. Bu esa shu navbatda fond bozorlarining tebranishiga, valyuta kurslari barqarorligini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonlar iqtisodiy o'sishning sekinlashuviga, byudjet tanqisligining ortishiga va ishsizlikning ko'payishiga olib keladi.

Siyosiy ziddiyatlar globallasuvi tartibga soluvchi asosiy institutlarning faoliyatini sekinlashtiradi. Xalqaro sanksiyalar (masalan, G'arbning Rossiyaga nisbatan qo'llaganlari) tobora ko'proq geosiyosiy qurol sifatida ishlatilmoqda. Bu, bir tomondan, bosim o'tkazish vositasi bo'lsa, boshqa tomondan, Jahon savdo tashkiloti (JST) tamoyillariga zid ravishda jahon savdo tizimini parchalashga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, global nizolar iqtisodiyotning asosiy ustunlariga zarba beradi, inflyatsiyani kuchaytiradi va qashshoqlik darajasini oshiradi. Dunyoning iqtisodiy farovonligi to'g'ridan-to'g'ri xalqaro tinchlik va amaliy hamjihatlikka bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. (2024). Global Economic Prospects, June 2024. The World Bank Group.
<https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>
2. International Monetary Fund (IMF). (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. IMF Publications.
<https://www.imf.org/en/Publications/WEO>
3. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). Trade and Development Report 2024. United Nations.
<https://unctad.org>
4. International Energy Agency (IEA). (2023). World Energy Outlook 2023. OECD/IEA.
<https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2023>
5. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. FAO.
<https://www.fao.org/publications>

6. The Economist Intelligence Unit. (2024). Global Inflation and Supply Chain Disruptions: Post-Conflict Economic Analysis.

<https://www.eiu.com>